

**NOGIRONLIGI BO‘LGAN INSONLARGA MUNOSABATLARNI JAMIYAT
TARAQQIYOTIDA O‘ZGARIB BORISHI**

Kasimova Xulkar Atabayevna
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annatsiya: *Ushbu maqolada nogironligi bo‘lgan insonlarga munosabatlarni jamiyat taraqqiyotida o‘zgarib borishi masalasi to‘g‘risida batafsil ma‘lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В данной статье представлена подробная информация по вопросу изменения отношения к людям с инвалидностью в ходе развития общества.*

Annotation: *This article provides detailed information on the issue of changing attitudes to people with disabilities in the course of society's development.*

Kalit so‘z: *Jamiyat, rivojlanish, nogironligi bo‘lgan shaxs, taraqqiyot, strategiya, ijtimoiy muhofaza.*

Ключевое слово: *Общество, развитие, инвалид, развитие, стратегия, социальная защита.*

Keyword: *Society, development, disabled person, development, strategy, social protection.*

Jamiyat taraqqiyoti bevosita unda yashayotgan insonlarning xatti-harakatiga bog‘liq hisoblanadi. Jamiyatning har bir a‘zosi uning taraqqiyotiga va farovonligigi o‘zining hissasini qo‘shishni xoxlaydi. Lekin xamisha ham insonda xoxish, istak va uni amalga oshirishdagi xatti-harakatlar bir-biriga mutanosib bo‘lavermaydi. Jamiyat hayotida shunday bir insonlar borki, ular o‘z imkoniyati va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun alohida etiborga muhtoj nogironligi bo‘lgan shaxslardir. Nogironligi bo‘lgan shaxslarga munosabatlar jamiyatning taraqqiy etib borishi jarayonida o‘zgarib borgan.

BMTning Xalqaro Nogironlar kuni har yili 3 dekabrda nishonlanadi va butun dunyo bo‘ylab nogironlarni qo‘llab-quvvatlashga bag‘ishlangan tadbirlar bo‘lib o‘tadi.

Bugungi kunda nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni va ro‘yobga chiqarishni nazarda tutuvchi xalqaro normalar va milliy qonunchilik shakllangandir. Bunday xalqaro hujjatlarning asosiylari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2006 yil 13 dekabrda 61/106-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya hamda Nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyaga Fakultativ protokol hisoblanadi.

Mazkur xalqaro hujjatga qo‘shilgan davlatlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish, ularning mustaqil turmush kechirishlari va ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalarida ishtirok etishlari uchun teng imkoniyatlar yaratish, transport, axborot, aloqa hamda axborot-kommunikatsiya

texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash va boshqa majburiyatlarni zimmasiga olgandir.

Ishtirokchi-davlatlar tomonidan Konvensiya qoidalarining bajarilishini ta'minlash va muvofiqlashtirib borishni BMTning Nogironlar huquqlari bo'yicha qo'mitasi amalga oshiradi. Qo'mita funksiyalariga davlatlar tomonidan taqdim etiladigan davriy ma'ruzalarni ko'rib chiqish, jismoniy shaxslar taqdim etadigan xabarlarini o'rganish, tekshirishlar o'tkazish va umumiy xususiyatga ega bo'lgan mulohazalar va tavsiyalarni ishlab chiqish kiradi.[1]

O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib nogironlik muammosiga diqqat qaratgan mamlakat xisoblanadi. Mamlakatimizda 1991 yilda boshqa qo'shni davlatlarda shunga o'xshash, yaqin qonunlar ishlab chiqish uchun na'muna bo'lib xizmat qilgan "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi.

2008 yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ushbu qonunning yangi tahririni qabul qildi. Unda nogironligi bo'lgan shaxslarning teng huquqliligini ta'minlash mexanizmlari yanada batafsil yoritilgandir.

O'zbekiston Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2017 yil 1 dekabr kuni "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonni imzoladi. Farmonda nogironligi bo'lgan shaxslarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlari belgilab berilgandir. Nogironlik belgisi bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarini ta'minlash sohasidagi umum e'tirof etilgan xalqaro norma va standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish; nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish darajasini oshirish; nogironligi bo'lgan shaxslarning oilasi, jamiyat va davlat bilan o'zaro aloqasini kuchaytirish; nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish shu kabi bir qator masalalar kiritilgan.

Qolaversa, xalqaro tan olingan demokratiyaning tamoyillaridan biri, shu bilan birga davlatimizning birinchi prezidenti I.A. Karimov tomonidan 1993 yilda ishlab chiqilgan va xalqaro hamjamiyat tomonidan "O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning "o'zbekona yo'li", yoxud, Islom Karimovning kashfiyoti – "nou-xau"si deb e'tirof etilgan "O'zbek modeli"dagi besh tamoyilning biri ham – nogironlarni, qariyalarni, aholining kam ta'minlangan qatlamini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash – kuchli ijtimoiy siyosat masalasi darajasiga ko'tarilgan edi.

Alohida ehtiyojlarga ega kishilarning ijtimoiy himoyasi tizimini belgilab bergan asosiy hujjat bu "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonun bo'ldi. [2.] Qonunning kirish qismida ko'rsatib o'tilganidek, nogironlarga, shu jumladan, nogiron bolalarga huquqlar va erkinliklarni O'zbekiston Respublikasining boshqa fuqarolari qatorida amalga oshirishlari uchun teng

imkoniyatlarni ta'minlash, ularning hayotlari va faoliyatlaridagi cheklanishlarni bartaraf etish, to'laqonli hayot kechirishlari, jamiyatning iqtisodiy va siyosiy hayotida faol qatnashishlari, shuningdek o'z fuqarolik burchlarini bajarishlari uchun maqbul shartsharoitlarni yaratish jamiyatning imkoniyatlari cheklangan a'zolariga nisbatan davlat siyosatining asosiy maqsadi xisoblanadi.

Nogironlikka ega shaxslarning ijtimoiy muhofazasini belgilab bergan yana bir muhim hujjat O'zbekiston Respublikasining 1996 yilning 29 avgustida qabul qilingan "Fuqarolar sog'lig'ini muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni xisoblanadi.

Hayot talablaridan kelib chiqqan holda bu Qonunni 1999 yil 15 aprelda va 2001 yil 12 mayda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan yangi variantlarining qabul qilinishi bu masalaga respublika hukumatining naqadar katta ahamiyat berayotganining yorqin isboti sifatida e'tirof etish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 01 avgustdagi F-5006-son "Nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Farmonga asosan, mamlakatimizda keksalar, pensionerlar, nogironlar va imkoniyati cheklangan bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordamni tashkil etish tizimi yaratildi. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini manzilli ijtimoiy himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev 2022 yil 20 iyun kuni Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda "Davlatning erkaklar va ayollar, oilalar va bolalar, yoshlar va nuroniylar, nogironligi bor shaxslar, mamlakatda yoki uning tashqarisida bo'lishidan qat'i nazar, barcha insonlar haqida qayg'urishi

Konstitutsiyada mustahkamlanishi zarur," – deb ta'kidlagani alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kechayotgan islohotlar samarasi o'laroq, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar Strategiyasining 2020 yilgi Davlat dasturiga muvofiq, 2020 yilning 15 oktyabr kuni mamlakat Prezidenti tomonidan yangi tahrirdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonun imzolandi. Mazkur qonun bilan nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021 yil 21 dekabrda "Nogironligi bo'lgan shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko'maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-son qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, 2022 yil 1 yanvardan Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan nogironligi bo'lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga har bir xodim uchun 6 oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravarida subsidiya beriladigan bo'ldi.

Shu bilan birgalikda hozirgi kunda ham davlat tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash masalasi yuzasidan turli chora tadbirlar amalga

oshirilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot Strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturiga quyidagilar kiritilgan.

Nogironlikni belgilashda fuqarolarga qo'shimcha engilliklar yaratish maqsadida:

2023 yil 1 apreldan boshlab nogironlik idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida nogironlik belgilari aniq ko'rinib turgan, anatomik nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, noxush klinik prognozga ega kasalliklar va asoratlarda fuqarolarning ishtirokisiz belgilanadi. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay formatlardagi axborot texnologiyalaridan, imo-ishora tilidan hamda muloqotning boshqa muqobil shakllaridan foydalanish imkoniyatlarini yaratishga e'tibor qaratilsin.[4]

Bir so'z bilan aytganda nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish, psixologik jixatdan qo'llab-quvvatlash jamiyatning dolzarb masalalardan biridir. Nogironlar jamiyatda ijtimoiy jihatdan eng zaif qatlam hisoblanib, ularning davlat tomonidan himoyaga olinishi va qo'llab-quvvatlanishi, bunday davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://pravacheloveka.uz/uz/news/rights-of-persons-with-disabilities-international-and-national-guarantees>
2. "O'zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi Qonun. Vedomosti Verxovnogo Soveta RUz. 1992, № 2. – B. 78.
3. O'zbekiston Respublikasi
3. <https://pravacheloveka.uz/uz/news/m10066>